



**QASHQADARYO VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI  
2024- YIL YANVAR-FEVRAL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 3 123,1 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 73,4 % ni tashkil etdi.




2024- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nishon tumani (26,4 %), G'uzor tumani (16,9 %), Qarshi shahri (11,3 %) Qarshi tumani (9,2 %) hamda Kasbi tumani (6,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Qarshi tumanida (120,8 %), Muborak tumanida (111,1 %) hamda Qamashi (109,8 %) tumanida kuzatildi.



## yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da\*)



### Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari        | 2023-yil yanvar-fevral | 2024-yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|----------------------------|------------------------|------------------------|-----------|
| Suyultirilgan gaz, ming t. | 19,7                   | 21,6                   | 1,9       |
| Neft, ming t.              | 1,7                    | 1,9                    | 0,2       |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m     | 14,4                   | 11,5                   | - 2,9     |
| Gaz kondensati, ming t.    | 17,0                   | 17,5                   | 0,5       |

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

| Dizel yoqilg'isi | Plastmassadan quvurlar | Kaliy xlorid                  |
|------------------|------------------------|-------------------------------|
| 2024-y. 135,7    | 2024-y. 45,0           | 2024-y. 89,8                  |
| 2023-y. 11,4 m.  | 2023-y. 69,0           | 2023-y. 101,4                 |
| 2022-y. 2,3 m.   | 2022-y. 137,4          | 2022-y. 92,4                  |
| Oltingugurt      | Polietilen             | Yumshoq bug'doy va spelta uni |
| 2024-y. 150,0    | 2024-y. 106,2          | 2024-y. 40,1                  |
| 2023-y. 80,5     | 2023-y. 115,8          | 2023-y. 54,7                  |
| 2022-y. 87,0     | 2022-y. 87,9           | 2022-y. 93,4                  |

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2023- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 24,3 % (20,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 18,1 % (5,5 %), quyi texnologiyali 57,2 % (41,1 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtovositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 0,6 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 1,9 m.), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,03 % (2023- yilning yanvar-fevral oyliga nisbatan fizik hajm indeksi 144,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,8 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,2 %) ga to'g'ri keldi.

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,7 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,9 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,4 %) ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 26,4 ming tonna dizel yoqilg'isi (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 135,7), 11,8 ming tonna kalava ip (174,7), 282,9 ming litr aroq mahsulotlari (67,5 %) hamda 5,1 ming tonna yumshoq bug'doy va sepelta uni (40,1 %) ishlab chiqarilgan.

| Sanoat mahsulotlari                     | 2023-yil yanvar-fevral | 2024-yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|------------------------|------------------------|-----------|
| Paxta lenti, ming t.                    | 0,8                    | 0,7                    | - 0,1     |
| Aroq, ming litr.                        | 419,4                  | 282,9                  | - 136,5   |
| Kalava ip, ming t.                      | 6,2                    | 11,8                   | 5,6       |
| Yumshoq bug'doy va sepelta uni, ming t. | 12,7                   | 5,1                    | - 7,6     |
| Paxta tolasi, ming t.                   | 13,4                   | 15,9                   | 2,5       |

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Metallurgiya sanoati

**Metallurgiya sanoati** – cho'yan ishlab chiqarish va qora hamda rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiv elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,03 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 144,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamlar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xom-ashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 91,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 199,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 92,5 % ga va ishlab chiqarish hajmi 474,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish** – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 70,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 22,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 27,0 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 12,0 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 147,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 114,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 117,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,8 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 89,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 759,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish** – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.

2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 37,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 102,6 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 108,4 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari           | 2023-yil yanvar-fevral | 2024-yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|-------------------------------|------------------------|------------------------|-----------|
| Elektrenergiya, mln.kVt.s     | 1 382,1                | 1 418,2                | 36,1      |
| Issiqlik energiyasi, ming gal | 596,1                  | 646,5                  | 50,4      |

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)




\* tegishli davar uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 132,8 % hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 112,3 % ga teng ekanligi kuzatildi.

| Sanoat mahsulotlari  | 2023-yil yanvar-fevral | 2024-yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|--|------------------------|------------------------|-----------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 1 700,6                | 1 909,9                | 209,3     |
| Suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm                  | 17 324,1               | 23 234,5               | 5 910,4   |

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra